



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 252 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
Xuseynova Abira Amanovna	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinov Elyorjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
Asatova Dildora Aslamovna	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik rehabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
Mitaliboyeva Dildora	
Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
Nartayeva Shahnova Yulchibayevna	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
Normatova Nilufar Komilovna	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model	83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
"Sab'ai sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
<i>Xusanov Samariddin Maxmadaminovich</i>	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
<i>Yarashev Jo'rabek To'rayevich</i>	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
<i>Габдулманова Ильнура Минисламовна</i>	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
<i>Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи</i>	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
<i>Уразова М. Б., Усманова У. Б.</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–маҳалла" в Узбекистане ..	130
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
<i>Юсупова Зулайхо Бахром кизи</i>	
Valeologik tarbiyada o'yin texnologiyalarining ahamiyati.....	139
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	
O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi, mazmuni va shakllanishi	142
<i>Buvorayeva Gulruh Shoikrom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	145
<i>Cho'tboyeva Munisxon Eshpo'lat qizi</i>	
Tabiatga muhabbat: maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va o'yinlar orqali ekologik tarbiya	150
<i>Ergasheva Umrinisso Komilovna</i>	
Zamonaviy ta'lim – talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirish omilidir.....	153
<i>Ermatova Gulnoz Pirimovna</i>	
O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni	156
<i>Gazibekova Feruza Hakimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar muhitida tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi	159
<i>Haydarova Feruza Haydar qizi</i>	
Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarni shakllantirish mexanizmi.....	162
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi.....	165
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish.....	168
<i>Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanishga zamonaviy yondashuvlar va jahon tajribalari ..	172
<i>Masharipova Barno Erkin qizi, Adilbayeva Dilnoza Adilbay qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'yinlari texnologiyalarining nazariy asoslari.....	175
<i>Masharipova Dilfuza Muxammadjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi	178
<i>Muhammadiyeva Feruza Turakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi	181
<i>Muhiddinova Munira Xayrullayevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi	184
<i>Narzullayeva Sevara Omonovna</i>	
O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	187
<i>Nizamova Nodira Paxritdinovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi	191
<i>Oysha Qurbonova, Nodira Abduraimova</i>	



Boshlang'ich ta'limda Finlandiya tajribasi	195
Nodira Sherboyeva	
Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida	198
O'ktam Nosirov	
Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi	204
Rustamova Shoxista Omonjonovna	
Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish masalalari	208
Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari	212
Sa'dullayeva Rushana	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	215
Saidova Dilbar Erkinovna	
Pedagog xodimlarda tolerantlik namoyon bo'lishining determinantlari	218
Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi	
Kreativ metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkur va fikrlashni rivojlantirish	223
Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi	
Artpedagogika texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish metodikasi	226
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari	229
Yaqubova Shoiratog'aymuratovna	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari	233
Yarmatov Raximboy Baxramovich	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	239
Zokirova Sohira Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	242
Марупова Дилфуза Давроновна	
Oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsad va vazifalari	247
F. R. Xosilova	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YASHIL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI

Yaqubova Shoira Tog'aymuratovna
Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida yashil kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Yashil kompetensiyalar – bu o'quvchilarda ekologik ong, tabiatga ongli munosabat, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanish g'oyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ko'nikmalar majmuasidir. Tadqiqotda o'qituvchilarning faoliyati, ta'lim dasturlari hamda o'quv metodikalarining ekologik yo'nalishda boyitilishi muhim omil sifatida baholangan. Natijalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun integrativ yondashuv samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, yashil kompetensiya, ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish, innovatsion ta'lim.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing green competencies in primary education. Green competencies represent a set of skills aimed at fostering ecological awareness, responsible attitudes toward nature, rational use of resources, waste reduction, and sustainable development principles. The study emphasizes the role of teachers, curricula, and eco-oriented teaching methods as key factors. The results demonstrate the effectiveness of an integrative approach in developing environmental culture among primary school students.

Key words: primary education, green competence, environmental education, sustainable development, innovative learning.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и практические основы формирования зелёных компетенций в системе начального образования. Зелёные компетенции представляют собой совокупность навыков, направленных на развитие экологического сознания, бережного отношения к природе, рационального использования ресурсов, уменьшения отходов и внедрения принципов устойчивого развития. В исследовании подчёркивается важная роль педагогов, учебных программ и экологически ориентированных методик обучения. Результаты показывают эффективность интегративного подхода в формировании экологической культуры у младших школьников.

Ключевые слова: начальное образование, зелёные компетенции, экологическое воспитание, устойчивое развитие, инновационное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda butun dunyoda ta'lim tizimi barqaror rivojlanish tamoyillarini o'z ichiga olgan holda yangilanmoqda. XXI asrning global chaqiriqlari – ekologik inqirozlar, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va biosferadagi muvozanatning buzilishi – inson faoliyatida “yashil tafakkur”ni shakllantirish zaruratini tug'dirmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab o'quvchilarda ekologik madaniyat va yashil kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kun ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida so'nggi yillarda “yashil iqtisodiyot” va “barqaror ta'lim” konsepsiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-son'li “2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorda ta'lim tizimida ekologik ong, mas'uliyat va yashil kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiya yosh avlodda ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish hamda ijtimoiy mas'uliyatni his etish ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida yashil kompetensiyalarni shakllantirish – bu faqat ekologiya fanini o'qitish bilan cheklanmay, balki barcha fanlar, o'quv jarayoni va

maktab hayotiga ekologik qadriyatlarni singdirish demakdir. O'quvchilarda tabiatni asrash, chiqindilarni kamaytirish, suv va energiyani tejash, qayta ishlash madaniyatini shakllantirish o'qituvchining metodik yondashuvi va ta'lim mazmunining yangilanishini talab etadi. Zamonaviy ta'lim nazariyalari (xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Education for Sustainable Development" – ESD modeli)ga ko'ra, yashil kompetensiyalar – bu bilim, ko'nikma, qadriyat va mas'uliyatni birlashtiruvchi integrativ kompetensiyalar bo'lib, ularning asosiy maqsadi o'quvchilarni ekologik jihatdan ongli va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashdir. Demak, boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni o'quvchilarning bilim, qadriyat va amalga tatbiq etish sohaslarida muvozanatli rivojlanishni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o'qituvchilarning ekologik-pedagogik tayyorgarligini oshirish, o'quv dasturlarini yangilash, integrativ yondashuvni joriy etish va o'quvchilarning ekologik loyihalarda ishtirokini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada boshlang'ich ta'limda barqaror rivojlanish yoki yashil kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng muhim kompetensiyalar – tizimli fikrlash, hamkorlik va amaliy yo'nalishli fikrlash hisoblanadi. Mualliflar bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan metodlarni – suhbat, guruhviy loyiha, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishni eng samarali deb hisoblaydi. Shuningdek, maqolada "gul modeli" asosida hamkorlik kompetensiyasi markaziy o'rinda turishi va boshqa yashil kompetensiyalar aynan shu jarayon orqali shakllanishi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimida boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish uchun ilmiy-metodik asos sifatida muhim ahamiyatga ega [1; 56–67-b.].

So'nggi yillarda ta'lim tizimida "yashil kompetensiyalar" tushunchasi ekologik savodxonlik, barqaror rivojlanish g'oyalari va innovatsion tafakkurni birlashtiruvchi muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, ekologik madaniyatni shakllantirishni erta bosqichda, ya'ni boshlang'ich ta'limdan boshlash o'quvchilarda tabiat va texnologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur anglashga yordam beradi. Xorijiy amaliyotlarda bu yo'nalishda "Building & Learning Project" kabi loyihalar muvaffaqiyatli tajriba sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur loyiha texnologiyalarni o'qitishda ekologik yondashuvni kuchaytirish, o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli qarashlarni shakllantirishga qaratilgan. Loyiha konsepsiyasi "axborot vositalaridan foydalanishni o'rgatish"dan ko'ra "axborot vositalari yordamida o'qitish" tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuv o'quvchilarni texnologiyani nafaqat iste'molchi sifatida, balki uning ijtimoiy va ekologik oqibatlarini anglay oladigan faol shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qiladi. Tajribalarda ko'rsatib o'tilganidek, dars jarayonini kooperativ o'qitish metodiga asoslash o'quvchilarning jamoaviy fikrlashi, muammoni ekologik nuqtai nazardan hal etishi va barqaror rivojlanish qadriyatlarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlarda LEGO Education Kit kabi konstruktorlardan foydalanish o'quvchilarning ijodkorlik, muhandislik fikrlashi hamda ekologik tafakkurini kuchaytiradi.

Darslarda hikoyalash elementini qo'llash esa o'quvchilarda ekologik muammolarni tushunish, ularni badiiy va ijtimoiy kontekstda ifodalash, shuningdek, muloqot madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Shu jihatdan, bunday loyihalar boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ, amaliy va kreativ yo'nalishlarini namoyon etadi. Shu asosda, mavjud ilmiy manbalar tahlili boshlang'ich ta'lim jarayoniga ekologik yo'naltirilgan didaktik yondashuvlarni joriy etish o'quvchilarda barqaror rivojlanish g'oyalarini erta shakllantirishga, texnologiyaning ijobiy va salbiy ta'sirlarini anglashga, shuningdek, ekologik mas'uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi [2; 324–333-b.].

Bugungi tezkor o'zgarishlar va barqaror rivojlanish davrida ta'lim tizimini, xususan, kasbiy va texnik ta'lim sohasini isloh qilish global miqyosda dolzarb masalaga aylandi. Xuddi shunday, boshlang'ich ta'lim tizimida ham sifatli ta'limni ta'minlash, o'qituvchilarning zamon talablari asosidagi kompetensiyalarini rivojlantirish barqaror kelajakni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Yangi davr sharoitida o'qituvchilarda zarur ekologik, pedagogik va texnologik kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun zarur shaxsiy va kasbiy salohiyatni ta'minlaydi. Shu sababli o'qituvchi kasbining kasbiy-professional profilini qayta ko'rib chiqish, uni ekologik yo'naltirilgan yondashuv bilan boyitish zarur bo'lmoqda [3; 1–19-b.].

Adabiyotlar tahlili va "ta'limni yashillashtirish" konsepsiyasini inobatga olgan holda, tadqiqotchilar barqaror rivojlanish kontekstida o'qituvchining pedagogik kompetensiyalar modelini taklif etmoqdalar. Ushbu model o'qituvchining faoliyati davomida shakllanib boruvchi asosiy kompetensiyalar tizimini ifodalaydi. U nafaqat tez o'zgarayotgan dunyo sharoitida ta'lim sifatini ta'minlashni, balki ekologik jihatdan sog'lom jamiyat va iqtisodiyot qurilishiga o'z hissasini qo'shishni ham maqsad qiladi. Model o'qituvchining ilmiy-nazariy bilimlari, ekologik tafakkuri, innovatsion pedagogik yondashuvlari hamda texnologik savodxonligining o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shuningdek, u o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini yo'naltirish, yashil kompetensiyalarni muntazam rivojlantirish va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi [4].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi barqaror rivojlanish tamoyillari, ekologik ta'lim konsepsiyasi hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida yashil kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarga tayangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ong, texnologik savodxonlik va mas'uliyatli munosabatni rivojlantiruvchi o'qitish yo'nalishlarini aniqlash hamda ularning samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqot barqaror rivojlanish nazariyasi (UNESCO, 2019), kompetensiyaga asoslangan yondashuv (OECD, 2020) hamda ekopedagogika tamoyillariga tayandi. Ushbu nazariy asoslar ta'lim mazmunini ekologik qadriyatlar bilan boyitish, o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish imkonini beradi.

Nazariy tahlil metodi – mavjud ilmiy manbalar, xalqaro tajriba va ilg'or pedagogik amaliyotlarni o'rganish orqali yashil kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy asoslari aniqlangan. Kuzatish va tajriba-sinov ishlari – boshlang'ich sinflarda ekologik yo'naltirilgan mashg'ulotlarni o'tkazish orqali o'quvchilarning yashil tafakkuri va kompetensiyalarining o'sish dinamikasi kuzatilgan. So'rov va suhbat metodi – o'qituvchilar va o'quvchilar orasida yashil ta'limga munosabatni aniqlash maqsadida anketalar hamda suhbatlar o'tkazilgan. Pedagogik tajriba – “yashil loyiha”, “storytelling”, “kooperativ o'qitish” kabi interfaol metodlar asosida tajriba darslari tashkil etilgan va natijalar tahlil qilingan. Statistik tahlil metodi – olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, ularning ishonchliligi aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yashil kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Jarayon davomida o'quvchilarning ekologik ong, texnologik savodxonlik va tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabati shakllanishining dinamikasi kuzatildi.

1. Yashil kompetensiyalarni baholash ko'rsatkichlari. Baholash quyidagi asosiy kompetensiya ko'rsatkichlari asosida olib borildi:

- kognitiv komponent – o'quvchilarning ekologik tushunchalar, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va tabiat muhofazasi haqidagi bilimlari;
- emotsional-axloqiy komponent – tabiatga nisbatan ijobiy munosabat, ekologik qadriyatlarga sodiqlik, mas'uliyat hissi;
- amaliy komponent – ekologik muammolarni hal etishda ishtirok etish, yashil odatlar (energiya tejash, suvni tejash, chiqindilarni ajratish)ni amalda qo'llash.

Tajriba-sinovning boshida o'quvchilarning bu ko'rsatkichlari past darajada bo'lgan (o'rtacha 46–50%). Tajriba darslari davomida interfaol metodlar, “storytelling”, “Building & Learning”, “eko-loyiha” kabi yondashuvlar asosida o'qitish natijasida yakuniy bosqichda bu ko'rsatkich 78–82% gacha oshdi.

2. Pedagogik tajriba natijalari. Pedagogik tajriba uch bosqichda olib borildi: diagnostik, amalga oshirish va yakuniy baholash bosqichlari.

Diagnostik bosqichda o'quvchilarning ekologik savodxonlik darajasi, tabiatga munosabati va yashil qadriyatlarni qabul qilish holati aniqlangan. Amalga oshirish bosqichida “kooperativ o'qitish” va “muammoli o'qitish” metodlari asosida yashil mavzulardagi darslar tashkil etildi. Darslarda LEGO Education Kit, tabiat materiallari va elektron resurslardan foydalanildi. Yakuniy bosqichda o'quvchilarning yashil tafakkur, ekologik xulq va ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba-sinov darslarida qatnashgan o'quvchilar nazorat guruhi bilan solishtirganda

- ekologik tushunchalarni 28% ga yaxshiroq o'zlashtirdilar;
- tabiatga nisbatan emotsional va axloqiy munosabat 32% ga oshdi;
- amaliy faoliyatda ishtirok etish, masalan, chiqindilarni saralash, gul ekish, suvni tejash kabi odatlar 40% ga ko'paydi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, yashil kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish, ko'rgazmali va texnologik vositalardan foydalanish, tabiat hodisalarini muammoli yondashuv asosida tahlil qilish hamda eko-loyihalarda jamoaviy ishtirokni ta'minlash o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qadriyatlarida barqaror o'zgarish hosil qiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, ularni ekologik ta'lim metodologiyasi bilan qurollantirish yashil kompetensiyalarni samarali shakllantirishning asosiy sharti ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan integrativ yondashuv (fanlararo, loyihaviy, innovatsion metodlar) boshlang'ich ta'limda ekologik ong va barqaror rivojlanish qadriyatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlik beradi.

**XULOSA**

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida yashil kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ekologik bilimlarni egallash, balki o'quvchilarda barqaror rivojlanish qadriyatlarini, tabiatga mas'uliyatli munosabat va ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik yondashuvlar o'quvchilarda ekologik tafakkur, ekologik axloq va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ijobiy natijalar berdi. Ayniqsa, "kooperativ o'qitish", "eko-loyiha", "storytelling" va "Building & Learning" kabi interfaol metodlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni faol o'rganish jarayoniga jalb etdi.

Yashil kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlarni kuzatish imkonini berdi: ekologik tushunchalarni ongli ravishda anglash va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish; tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish kabi yashil odatlarning shakllanishi; ekologik muammolarni hal etishda jamoaviy fikrlash va mas'uliyat bilan yondashish. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, o'qituvchilarning ekologik-pedagogik tayyorgarligi va yashil kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchilarda ekologik ongning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada, boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida, yosh avlodda ekologik madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish g'oyalarga sodiqlikni tarbiyalashning eng samarali yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vesterinen M., Ratinen I. Sustainability competences in primary school education – a systematic literature review // Environmental Education Research. – 2024. – T. 30. – № 1. – C. 56–67. <https://doi.org/10.1080/13504622.2023.2170984>
2. Sacco M. M., Vitti E. L., Parola A. Developing European key competences with green education // European Journal of Sustainable Development. – 2020. – T. 9. – № 3. – C. 324–333. <https://doi.org/10.14207/ejsd.2020.v9n3p324>
3. Diep P. C., Hartmann M. Green Skills in Vocational Teacher Education – a model of pedagogical competence for a world of sustainable development // TVET@Asia. – 2016. – T. 6. – C. 1–19.
4. Vietnamese Ministry of Natural Resources and Environment (MoRE) & United Nations Development Programme in Viet Nam (UNDP). Viet Nam Special Report on Managing the Risks of Extreme Events and Disasters to Advance Climate Change Adaptation: Summary for Policymakers (SREX Vietnam 2015). Vietnam: Resources, Environment and Map Publishers, 2015.
5. Karimova M. Boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyani amalga oshirish metodikasi. Toshkent: Fan va ta'lim nashriyoti, № 3, 45–52-betlar.
6. Rasulova D. Yashil kompetensiyalarni shakllantirishda o'quv jarayonining innovatsion yondashuvlari. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 2023-yil, 7-son, 33–39-betlar.
7. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. Paris: UNESCO Publishing.
8. Nazarov S., Omonova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish yo'llari. Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2021-yil, 4-son, 22–28-betlar.
9. OECD. Learning for 2030: The Future of Education and Skills. Paris: OECD Publishing, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.